

**O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti hamda O'zbek xalqining  
buyuk farzandi – Islom Abdug'aniyevich Karimov**

**Nodirbek Qo'shboqov,**

**TTPU MI 2–bosqich talabasi**

“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”<sup>1</sup>. Xalqimizning buyuk farzandi bo'l mish I.A.Karimovning ushbu gaplari negizida juda katta ma'no mujassamlashganligini har bir o'zbek xalqining farzandi ich-ichidan his qilishi turgan gap. Chunki, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan qo'lga kiritilgan hamda u kishining boshlab bergen jamiiyki ishlarining asosiy ezgu maqsadi bu – mustaqilligimizning abadiyligi, jamiyatimizning yuksak ravnaqi va eng asosiysi inson kamoli uchundir. O'z xalqining so'nmas kelajagi va rivoji uchun hech narsadan tab tortmagan insonni tarix zarvaraqlarida “qahramon” deya tilga olinadi. Haqiqiy qahramon aslida: har kuni, har soatda fidoiy bo'lgan, o'zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borgan, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirgan timsol sifatida, shubhasiz, muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovni hech ikkilanmasdan ko'z oldimizga keltiramiz, deb o'�layman.

Ma'lumki, Islom Karimov respublikamiz rahbari sifatida ish boshlagan paytda o'lkamizda uzoq yillar davomida hukm surgan kommunistik mafkura va faqat xom ashyo yetkazib berishga asoslangan bir yoqlama iqtisodiy siyosat har bir sohada

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov, “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”, T., “Ma'naviyat”

o'zining halokatli salbiy ta'sirini keng miqyosda ko'rsata boshlagan edi. Ana o'sha paytlarda o'lkamizdagi vaziyatni chinakamiga o'nglash, yurtdoshlarimizning hayotga qarashini, bugungi va ertangi kunga ishonchini mustahkamlash uchun avvalo, ularning iqtisodiy, moddiy ahvolini yaxshilash zaruriyatini chuqr anglagan respublikamiz rahbari aholi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan juda ko'plab masalalarni ko'rib chiqib, so'ngra birin-ketin barchasini amalga oshira boshlagan.

Xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniy merosi, urf-odat va an'analarini asrab avaylash va rivojlantirish, mustabid tuzum davrida taqiqlab qo'yilgan Navro'z bayrami, Ramazon va Qurban hayitlarini nishonlash, dinga hurmat bilan munosabatda bo'lishni qaror toptirish, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband va boshqa aziz-avliyolarimiz, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' ajdodlarimiz xotirasiga nisbatan tarixiy adolatni tiklash haqidagi fikr-mulohazalar, qaror va farmoyishlar shular jumlasidandir.

Vujudga kelgan o'ta og'ir sharoit, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qiyinchiliklarga, turli to'siqlarga qaramasdan, xalqimiz Islom Karimov boshchilgida o'zining asriy orzusi – O'zbekistonning davlat suvereniteti va mustaqilligi sari qat'iyat bilan harakat qilishda davom etdi. “Nihoyat, orziqib kutilgan qutlug' sana – 1991 yilning 31 avgust kuni yetib keldi. O'zbekiston SSR Oliy Kengashining oltinchi sessiyasida Islom Karimov tantanali ravishda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini e'lon qildi”.<sup>2</sup>

Islom Karimovning ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda “O'z istiqlol va taraqqiyot yo'llimiz – bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir”<sup>3</sup>, deb aytgan so'zlari zamirida qanchalik chuqr hayotiy ma'no borligini yana bir bor anglaymiz.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan xalqimizga hamda biz yoshlarga yaratilib berilayotgan son-sanoqsiz sharoitlarning

<sup>2</sup> I.A.Karimov, “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, T., “O'zbekiston”

<sup>3</sup> I.A.Karimov, “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, T., “O'zbekiston”

barchasi endilikda o'z samarasini berib kelmoqda. Jumladan, barpo etilgan zamonaviy inshootlar, ko'plab mamlakatlar bilan hamkorlikda ochilayotgan Oliy o'quv yurtlari, zamonaaviy jihoz va anjomlarga ega bo'lgan sport komplekslarining ishga tushirilishi va boshqalardir. Bunday o'zgarishlar biz uchun zamon bilan hamnafas bo'lib yashashga undab, kelgusida vatanga bo'lgan muhabbatimizni yuksalishiga turki bo'lishi muqarrardir.

Davlatimiz ravnaqi shu bilan birga inson manfaati yo'lida ko'pdan-ko'p loyihalar yaratildi, konsepsiylar va qonunlar kuchga kirdi. Xalqaro davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarini bir-biriga solishtirib, yurtimiz kelajagi uchun katta ahamiyatli bo'lgan, beshta tamoyiliga ega taraqqiyotning "O'zbek modeli" dasturiga asos solindi. Shundan so'ng, vatanimizning ravnaqi tobora ortib borishi natijasida, dunyo mamlakatlari bizning tanlagan yo'limizga katta e'tibor bera boshlashdi.

Jahon minbarlarida turib, manaman degan qanchadan qancha davlatlarning obro'sini qozongan, xalqparvar o'zbek xalqining farzandi bo'lmish Islom Karimovning tutgan yo'li doimo "ezgulik va tinch-totuvlik" shiori ostida tilga olinib kelinadi. U kishining o'z nutqida "Mustaqil O'zbekiston davlatining siyosati insoniylik va ezgulik tamoyillariga asoslanadi"<sup>4</sup> degan dasturiy g'oyani butun dunyoga bayon qildi va mana, yigirma besh yillardiki, davlatimiz ana shu siyosiy prinsipga og'ishmasdan qat'iy amal qilib kelmoqda. Yana misol qilib, "2014-yilning may oyida Samarkand shahrida o'tkazilgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaga kelgan ishtirokchilar xalqimizning buyuk daholariga, bemisl ilmiy, ma'naviy va madaniy merosiga qoyil qolib, bizga havas bilan qarashani yashirib o'tirmadi"<sup>5</sup> – deb aytib o'tgan edilar.

Dunyoning ba'zi malakatini ko'rmaylik yoki eshitmaylik vujudga kelayotgan turli xil ziddiyatlarning va terrorchilik harakatlarining guvohi bo'lmoqdamiz.

<sup>4</sup> I.A.Karimov, "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", T., "O'zbekiston"

<sup>5</sup> I.A.Karimov, "Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir", T., "O'zbekiston"

Ollohga beedad shukurlar bo'lsinki, biz yurtimizda bunday g'arazli oqimlardan holi bo'lib yashab kelmoqdamiz. Jamiyatning negizi hisoblangan oilalarda tinch-totuvlik hissi qamrab olganligi bejiz emas albatta. Bularning barchasi xalqimizning buyuk farzandi bo'lmish Islom Karimov boshchiligidagi olib borilgan siyosiy islohotlarning samarali natijasidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Islom Karimovning turli xil vaziyatlarga real baho berish, nostandard qarorlar qabul qilishi va chuqur tahliliy qobiliyatga ega bo'lган mana shunday shaxslargina tarix taqozo etganda butun mas'uliyat va javobgarlikning barcha yukini o'z zimmasiga olishga qodir bo'lishi, har tomonlama teran o'ylab, uzoqni ko'zlab ish ko'rgan holda, davlat va jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lган strategik qarorlar qabul qilaolishiga biz – butun o'zbek xalqi amin bo'lganmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. « Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch » I.A.Karimov
2. « O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida » I.A.Karimov
3. « Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir » I.A.Karimov